

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01
RAQAMLI ILMY KENGASH**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

KURBANOV SHERZOD MURATKOBILOVICH

**HAYOT VA SOG‘LIQ BILAN BOG‘LIQ RETSIDIV OG‘IR
JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Kriminologiya. Jinoyat-ijroiya huquqi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023 yil

Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской диссертации
Content of the Doctoral Dissertation

Kurbanov Sherzod Muratkobilovich

Hayot va sog‘liq bilan bog‘liq retsdiv og‘ir jinoyatlarga qarshi kurashish.....3

Курбанов Шерзод Мураткobilovich

Противодействие рецидиву тяжких преступлений, связанных с жизнью и здоровьем..... 27

Kurbanov Sherzod Muratkobilovich

Counteraction to the recurrence of severe crimes related to life and health.....51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....55

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

KURBANOV SHERZOD MURATKOBILOVICH

**HAYOT VA SOG‘LIQ BILAN BOG‘LIQ RETSIDIV OG‘IR
JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Kriminologiya. Jinoyat-ijroiya huquqi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida V2023.2.PhD/Yu806 -raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.jxu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Taxirov Farxod

yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Urazaliyev Murod Qorayevich

yuridik fanlar doktori, professor

Karakterova Dilnoza Yuldashevna

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil “__” _____ soat___.dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100211, Toshkent v., Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.: (99871) 230-32-71; faks: (99871) 230-32-82; mgjxu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro‘yxatga olingan) Manzil: 100211, Toshkent v., Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel./faks: (+99871) 230-32-71.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “__” _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil “__” _____dagi __-raqamli reestr bayonnomasi).

M.X. Rustambayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

N.I.Xayriyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

M.B.Usmanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda jinoyatchilik bilan bog‘liq vaziyat og‘irligicha qolayotganligi, 2023-yilning birinchi yarim yilligi tahlillariga ko‘ra, 48 mamlakatda jinoyatchilik darajasi ortib (shulardan eng yuqorisi Venesuela-82,6, Papua-Yangi Gvineya-79,9 va Afg‘oniston-78,6) borayotganligi¹ hayot va sog‘liq bilan bog‘liq retsivid og‘ir jinoyatlarga qarshi kurashish tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shuningdek, Xitoy, Hindiston, AQSh va Indoneziya kabi davlatlarda retsivid jinoyatchilik ko‘rsatkichi jiddiy suratlarda oshib borayotganligi, xususan, so‘ngi besh yilda AQShda takroran jinoyat sodir etish ko‘rsatkichi 70 foiz bo‘lib, shundan 62 foizi zo‘rluk ishlatish bilan bog‘liq jinoyatlardir². Ushbu holat, jahon hamjamiyati oldiga retsivid jinoyatchilikni oldini olishning samarali tizimini ishlab chiqish hamda uni amaliyotga tatbiq etish zaruratini qo‘ymoqda.

Jahonda retsivid jinoyatchilik va u bilan aloqador ijtimoiy-salbiy hodisalarning kelib chiqish sabab va sharoitlarini tadqiq etish, retsivid jinoyatchilikga qarshi kurash hamda uni oldini olish tizimini rivojlantirish, uyushgan jinoiy guruhlarining sotsiologik-psixologik portretini ochib berish sohalarida tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, retsivid jinoyatning konseptual apparatini o‘rganish, uning uchun jinoiy javobgarlikni oshirish asoslarini aniqlash, hayot va sog‘liqqa qarshi og‘ir retsivid jinoyatlarning jinoiy-huquqiy jihatlarini tahlil qilish, kriminologik tavsifini va asosiy sabablari va sharoitlarini tadqiq etish, retsivid jinoyatlarning oldi olinishini huquqiy ta‘minlash hamda uning kriminologik profilaktikasiga oid chora-tadbirlar ishlab chiqish yo‘nalishlarida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish va huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda yangi ish uslublarini joriy qilish, hayot va sog‘liqqa qarshi retsivid jinoyatlar takrorlanishining oldini olish bilan bog‘liq milliy qonunchilikni yanada takomillashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»da jinoyatchilikning oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, jinoyatlarga qarshi kurashishda tezkor-qidiruv faoliyatini yanada kuchaytirish, jinoyat qonunchiligini rivojlantirish siyosatini izchil davom ettirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda jinoyatlar haqida xabarlarini hisobga olish tizimini tubdan isloh qilish, jinoyatlarni yashirish holatlarining oldini olishda zamonaviy usullardan foydalanish³ ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanganligi, ushbu sohani ilmiy tadqiq etish zarurligini taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (1994), Jinoyat-protsessual kodeksi (1994), Jinoyat-ijroiya kodeksi (1997), «Huquqbuzarliklar profilaktikasi

¹ https://www.numbeo.com/crime/rankings_by_country.jsp. Crime Index by Country 2023 (murojaat sanasi: 14.06.2023).

² <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/recidivism-rates-by-country> (murojaat sanasi: 03.01.2023).

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сон фармони // <https://lex.uz/docs/5841063>

to'g'risida»gi (2014), «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi (2016) qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni, 2018 yil 07 noyabrdagi PQ-4006-son «Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 10 sentyabrdagi VMQ-565-son «Jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni muhokama qilish tartibi to'g'risida»gi qarori va sohaga doir boshqa qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishga hamda ularda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari pivojlanishining I.«Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq holda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Retsidiv jinoyatchilik bilan kurashishning ayrim masalalarini milliy olimlarimiz tomonidan o'rganilgan, xususan, retsidiv jinoyatchilikni jinoiy-huquqiy jihatlari M.X.Rustambayev, F.Toxirov, M.Q.O'razaliyevlar, penitensiar retsidiv jinoyatchilikni Yu.S.Pulatov, G.U.Axmedovalar, retsidiv jinoyatlarning profilaktikasi va sabab hamda sharoitlari, kriminologik tavsifi bilan bog'liq masalalar R.S.Zaripov, I.Ismoilov, Ch.A.Sattorov, K.R.Abdurasulova, I.Yu.Fazilov, J.S.Muxtorov, J.A.Ne'matov va boshqalar tomonidan muayyan darajada o'rganilgan.

MDX olimlaridan G.A.Avanesov, Yu.M.Antonyan, I.A.Galperin, A.I.Dolgova, A.F.Zelinskiy, P.N.Kobes, N.F.Kuznesova, S.V.Poznshev, N.S.Tagansev, M.D.Shargorodskiy, V.A.Shkurko, A.M.Yakovlev va boshqalar tomonidan retsidiv jinoyatchilik bilan bog'liq muayyan masalalar o'rganilgan.

Xorijiy olimlardan David Nash, Cavadino M., Dignan I., Frank E., Shtyeve Andreas, Ramirez D.A., Pinatel J., Zahars V., Stivrenieks M., Pulat Risto⁴ kabilar tomonidan retsidiv jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish sohasida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan.

Ilmiy materiallarning xilma-xilligiga qaramay, zamonaviy sharoitda hayot va sog'liqqa qarshi og'ir zo'ravonlik retsidiv jinoyatlarning alohida o'rganish obyekti sifatida retsidiv jinoyatchilikning oldini olish muammosi bo'yicha tadqiqot olib borilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari rejasini "Hayot va sog'liq bilan bog'liq retsidiv og'ir jinoyatlarga qarshi kurashish" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda hayot va sog'liq bilan bog'liq retsidiv

⁴ Юкорида келтирилган ва бошқа олимларнинг ишлари диссертациянинг фойдаланилган адабиётлар рўйхатида келтирилган.

og'ir jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha ilmiy-nazariy xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

retsidiv jinoyat tushunchasining jinoiy-huquqiy tavsifini tadqiq qilish;

retsidiv jinoyat uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirish asoslarini tahlil qilish;

hayot va sog'liqqa qarshi og'ir jinoyatlar retsidivida jinoyatchi shaxsining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

hayot va sog'liqqa qarshi og'ir jinoyatlar retsidivining sodir etilish sabab va sharoitlarini aniqlash;

hayot va sog'liqqa qarshi og'ir jinoyatlar retsidivining oldini olinishni jinoiy-huquqiy ta'minlash choralarini belgilash;

huquqni muhofaza qiluvchi organlarning hayot va sog'liqqa qarshi og'ir jinoyatlar retsidivini oldini olish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini O'zbekistonda hayot va sog'liq bilan bog'liq retsidiv og'ir jinoyatlarga qarshi kurashish sohasidagi ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini retsidiv jinoyat tushunchasi va mazmunining nazariy asoslari, hayot va sog'liqqa qarshi og'ir jinoyatlar retsidivining kriminologik tavsifi va bunday jinoyatlarni oldini olish borasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy bilimlarga tizimli-strukturaviy, qiyosiy-huquqiy, formal-mantiqiy, tizimli yondashish, tahlil, sintez, aniq sotsiologik, kuzatish, deduksiya, induksiya, ilmiy manbalarni, huquqiy hujjatlarni har tomonlama o'rganish, empirik materiallar va statistik ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, ilmiy tahlilning mantiqiy usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“jinoyatning sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish choralari” tushunchasiga “kelgusida jinoyat sodir etilishining oldini olishga qaratilgan huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy, tarbiyaviy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar majmui” mazmunida mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar muhokamasi sodir etilgan jinoyat holati bo'yicha – jinoyat sodir etilgan hududdagi mahallada jinoyat ishi qo'zg'atilgan kundan boshlab uch kun ichida, jinoyat sodir etgan shaxs bo'yicha – uning yashash joyidagi mahallada sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi ichki ishlar organlariga kelib tushgan kundan boshlab uch kun ichida o'tkazish lozimligi asoslab berilgan;

jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni muhokama qilishning asosiy vazifalari sifatida jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash, shuningdek, jinoyatlarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish va fuqarolarning jinoyatdan jabrlanish xavfini kamaytirish (viktimologik profilaktika)ni belgilash zarurati asoslab berilgan;

jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni muhokama qilishning asosiy vazifalari sifatida jinoyatlarning sabablari va

ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni o'rganish, aniqlash va bartaraf etish amaliyotini yo'lga qo'yish, jinoyatdan jabrlanuvchini, g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan, jinoyat sodir etgan shaxslarni ijtimoiy moslashtirish choralarini kuchaytirishni belgilash asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jinoyat huquqi va kriminologiyada retsidiv jinoyatchilik, hayot va sog'liqqa qarshi og'ir zo'ravonlik retsidiv jinoyatlar tushunchalariga ta'riflar ishlab chiqilgan;

hayot va sog'liqqa qarshi retsidiv jinoyatlarni oldini olish muammolarini zamonaviy sharoitda jinoyat-huquqiy, kriminologik va jinoyat-ijroiya jihatlarni kompleks o'rganish asoslab berilgan;

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksida jazoni o'tagan shaxslarning huquqiy maqomini belgilash yuzasidan yangi norma – 170¹-moddani, Jinoyat-protsessual kodeksga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxsga nisbatan koloniyadan ozod qilinguniga qadar cheklovlar belgilash masalasini ko'rib chiqish yuzasidan yangi norma – 542¹-moddani kiritish asoslab berilgan;

O'zbekiston Respublikasi hududida 2016-2022 - yillarda qayd etilgan jinoyatlarning holati va dinamikasi taxlil qilinib, qonun hujjatlarini takomillashtirish va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida qo'llanilishi mumkin bo'lgan huquqiy normalarni qo'llash bo'yicha uslubiy qo'llanma ishlab chiqilgan;

retsidiv jinoyatchilikni oldini olish yuzasidan jamoat xavfsizligi departamenti xodimlarining ilgari huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar bilan profilaktik faoliyati nomli uslubiy qo'llanma ishlab chiqilgan;

hayot va sog'liqqa qarshi og'ir jinoyatlarni oldini olish chora-tadbirlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot doirasida xalqaro huquq normalari, milliy normativ-huquqiy hujjatlar, xorijiy davlatlar tajribasi, ichki ishlar organlari faoliyati materiallarini (jinoyat ishlari materiallari, hayot va sog'liqqa qarshi og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun jazoni o'tayotgan shaxslarga nisbatan sud hukmlarini) o'rganish asosida ishlab chiqilgan xulosalar, takliflar va tavsiyalar, hayot va sog'liqqa qarshi og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun jazoni o'tayotgan 100 ga yaqin shaxs o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari, dissertatsiya ishida foydalanilgan materiallar belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar sinovdan o'tkazilib, natijalari yetakchi xorijiy va milliy jurnallarda chop etilganligi, o'rganish natijalari vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanib, amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, undagi nazariy xulosa va takliflar O'zbekiston Respublikasi jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borish, sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar normalarini sharhlash va amaldagi qonunchilikni takomillashtirish hamda "Jinoyat huquqi", "Jinoyat-ijroiya huquqi", "Huquqbuzarliklar profilaktikasi" fanlarini ilmiy-nazariy boyitishda namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati jinoiy-huquqiy javobgarlikni kuchaytirish amaliyotini takomillashtirish, hayot va sog'liq bilan bog'liq retsidiv og'ir jinoyatlarga qarshi kurashishga qaratilgan qator huquqiy, tashkiliy-taktik,

axborot-ma'rifiy chora-tadbirlar ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hayot va sog'liq bilan bog'liq retsidiv og'ir jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotning ilmiy natijalari asosida quyidagilar ishlab chiqildi va joriy etildi:

“jinoyatning sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish choralari” tushunchasiga “kelgusida jinoyat sodir etilishining oldini olishga qaratilgan huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy, tarbiyaviy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar majmui” mazmunida berilgan ta'rif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 10 sentabrdagi 565-son qarori bilan tasdiqlangan “Jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni muhokama qilish tartibi to'g'risida nizom”ning 2-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 iyundagi 3/23-5-son dalolatnomasi). Ushbu taklifni amaliyotda joriy etilishi “jinoyatning sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish choralari” tushunchasi mazmunini ochib berishga xizmat qilgan;

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 104-moddasining birinchi qismidagi «ruhiy kasalga chalinishga yoki umuman sog'lig'i buzilib» degan so'zlarni «ruhiy holatining buzilishiga yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda buzilishiga» degan so'zlar bilan almashtirish yuzasidan taklifi O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 12 sentabrdagi “Psixiatriya yordami ko'rsatish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'RQ-567-son qonunining “Jazo bilan birga tayinlanadigan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash” nomli 96-moddasini 12-bandini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 yil 21 iyun kunidagi 666-son dalolatnomasi). Ushbu taklifni amaliyotda joriy etilishi jinoyat qonunchiligini takomillashtirishga xizmat qilgan;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash, shuningdek, jinoyatlarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish va fuqarolarning jinoyatdan jabrlanish xavfini kamaytirish (viktimologik profilaktika)ni jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni muhokama qilishning asosiy vazifalari sifatida belgilash yuzasidan taklif, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 10 sentabrdagi 565-son qarori bilan tasdiqlangan Jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni muhokama qilish tartibi to'g'risida nizomining 4-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 iyundagi 3/23-5-son dalolatnomasi). Ushbu taklifni amaliyotda joriy etilishi jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni muhokama qilish tartibini takomillashtirishga xizmat qilgan;

jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar muhokamasi sodir etilgan jinoyat holati bo'yicha – jinoyat sodir etilgan hududdagi mahallada jinoyat ishi qo'zg'atilgan kundan boshlab uch kun ichida, jinoyat sodir etgan shaxs bo'yicha – uning yashash joyidagi mahallada sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi ichki ishlar organlariga kelib tushgan kundan boshlab uch kun ichida o'tkazish yuzasidan taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 2021 yil 10 sentabrdagi 565-son qarori bilan tasdiqlangan Jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni muhokama qilish tartibi to'g'risida nizomining 6-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 iyundagi 3/23-5-son dalolatnomasi). Ushbu taklifni amaliyotda joriy etilishi jinoyatlarning sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar muhokamasini sodir etilgan jinoyat holati bo'yicha hamda jinoyat sodir etgan shaxs bo'yicha ko'rib chiqish muddatlarini belgilashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanda, xususan, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy ish, shu jumladan 7 ta ilmiy maqola (3 tasi xorijiy nashrda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 8 ta paragrafdan iborat uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyot ro'yxati va 21 ta ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 135 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprotatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Retsidiv jinoyat tushunchasi va mazmunining nazariy asoslari**" deb nomlanib, ushbu bobda retsidiv jinoyat tushunchasining jinoiy-huquqiy tavsifi, retsidiv jinoyat uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirish asoslari ilmiy-amaliy tahlillar asosida o'rganilgan.

Ushbu bobning "*Retsidiv jinoyat tushunchasining jinoiy-huquqiy tavsifi*" deb nomlangan birinchi paragrafda muallif tomonidan O'zbekistonda mustaqillikga qadar va istiqloq yillarida retsidiv jinoyatlar bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solinishi masalalari huquqiy tahlil qilingan.

Dissertantning fikricha, shaxsga sig'inish sharoitida retsidiv jinoyatlarga qarshi kurashish muammolari amalda ko'rib chiqilmagan, o'sha paytda retsidiv jinoyatlarga qarshi qat'iy va real kurashni olib borish o'rniga mamlakatimizda jinoyatning ushbu turi mavjud emasligi haqidagi umumiy gaplar bilan almashtirish tendensiyasi mavjud bo'lgan.

Ushbu paragrafda P.F. Grishanin, V.I. Popov, M.X.Rustambayev, T.M.Kafarov, Yu.I. Shutov, Yu.M.Tkachevskiy, N.D.Sergieevskiy, M.A.Yefimov, V.A.Shkurko, B.S.Utevskiy, A.F. Zelinskiy, A.M. Niedre, A.I.Urmonas, M.Usmonaliev, Y.Karaketov, E.X.Norbo'taev, N.F.Kuznesova, A.I.Dolgova, I.M.Galperin kabi olimlarning retsidiv jinoyat tushunchasi va uning jinoiy-huquqiy, kriminologik va

penitensiar tavsifi bilan bog‘liq nazariy qarashlari tahlil qilingan.

Dissertantning fikricha, shaxs o‘n sakkiz yoshga to‘lgunga qadar ijtimoiy xavfi ortib borishi mumkin, chunki shaxs ertaroq yoshida ham o‘z harakatlari noqonuniyligini va ular bilan bog‘liq jinoiy-huquqiy oqibatlarni anglay oladi. Bundan tashqari, ta‘bir joiz bo‘lsa, haddan ortiq imtiyozlar voyaga yetmaganlar jinoyati darajasini oshirishi mumkin.

Kriminologik retsidiv deganda jinoiy javobgarlik yoshiga yetgan shaxs tomonidan sodir etilgan har qanday jinoyat takroriy sodir etilishini tushunish kerak.

Afsuski, retsidiv jinoyatchilikning huquqiy ta‘rifi yo‘q, bu nafaqat nazariyotchilar, balki amaliyotchilar tomonidan ham qayd etilgan; O‘zbekiston Respublikasining jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish bo‘yicha Davlat dasturi va “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida (2014) ham bunday ta‘rif yo‘q.

Mantiqiy mulohaza yuritish orqali xulosa qilish mumkinki, retsidiv jinoyatchilik deganda, jinoiy qilmish aybining shaklidan, sudlanganlik muddati o‘tgani yoki olib tashlanganidan qat‘i nazar, ilgari jinoyat-huquqiy ta‘sir choralari qo‘llanilgan shaxslar tomonidan, O‘zbekiston Respublikasi hududida muayyan vaqt davomida sodir etilgan barcha jinoiy harakatlar majmui tushuniladi.

Dissertantning fikricha, shaxsga nisbatan zo‘rluk ishlatib sodir etiladigan retsidiv jinoyatchilikning qonuniy ta‘rifi, uni kasbiy va uyushgan jinoyatchilikdan aniq ajratib ko‘rsatish zaruriyati mavjud.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasining “Retsidiv jinoyatchilikni oldini olish to‘g‘risida”gi qonunini ishlab chiqish taklif etilgan. Uning tuzilishini quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim: retsidiv jinoyatchilik tushunchasi; retsidiv jinoyatchilik xususiyatlari; jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha respublika chora-tadbirlari; (viloyat, tuman, shahar, mahalla) miqyosida hal etiladigan retsidiv jinoyatchilikka qarshi kurashish masalalari; retsidiv jinoyatchilikni oldini olish subyektlari.

Birinchi bobning “*Retsidiv jinoyat uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirish asoslari*” deb nomlanuvchi ikkinchi paragrafida retsidiv jinoyatlar sodir etgan shaxslarning javobgarligi bilan bog‘liq eng murakkab va munozarali muammolar, xususan, ushbu jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning jinoiy javobgarligi bo‘yicha M.X.Rustambayev, P.F.Grishanin, V.D.Filimonov, N.S.Tagansev, S.P.Buzinova, A.B.Saxarov, .S.Dagellarning nazariy qarashlari, sohaga oid qonunchilik asoslari tahlil qilingan.

Nisbatan ko‘proq munozarali masala – bu retsidiv jinoyat uchun jinoiy javobgarlikni oshirish uchun asoslar nimadan iboratligidir. Bu borada mutaxassislar tortishuvlari bugungi kungacha aniq bir yechimga kelmagan.

Birinchi marta sudlangan va retsidivist tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning og‘irligi bir xil bo‘lsa, ikkinchisi og‘irroq jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak, zero ilgari sudlangan shaxs tuzalmagan bo‘lsa, yana jinoyat sodir etish niyatida bo‘lsa, unda birinchi marta sudlangan shaxsga nisbatan tayinlash mumkin bo‘lgan jazodan og‘irroq jazogina uni bunday harakatdan to‘xtata oladi, degan xulosaga kelgan.

Tadqiqotchi, retsidivist tomonidan sodir etilgan jinoyatlar takroriyliigi bo‘yicha professor M.X.Rustambayev haqli ravishda shunday deb hisoblaydi: “Sudlangandan

keyin takroran qasddan jinoyat sodir etish, shaxsga ko'rsatilgan profilaktik va tarbiyaviy ta'sirga qaramay, tuzalish yo'liga o'tmaganligidan dalolat beradi"⁵ degan fikrini qo'llab-quvvatlaydi.

Muallifning fikricha, retsdiv jinoyatlarning oldini olish uchun Jinoyat kodeksida retsdivistlarning yuqoriroq jinoiy javobgarligi to'g'risidagi aniq qoidalar tartibga solinishi lozim. Bunday qonun hujjatlarining huquqiy targ'iboti ilgari sudlangan, lekin tuzalmaganlarning juda bo'lmasa bir qismini retsdiv jinoyatdan ushlab qolishi mumkin, ayni chog'da, sud retsdivistga nafaqat maxsus, oshirilgan jazo miqdorini, qoida tariqasida, ozodlikdan mahrum qilishni belgilashi, balki O'zbekiston Respublikasi JKning 50-moddasi qoidalari hisobga olgan holda, jazoni ijro etish muassasalarida saqlashning qattiqroq rejimini tayinlashi, maqsadga muvofiq.

Dissertatsiyaning **“Hayot va sog'liq bilan bog'liq retsdiv og'ir jinoyatlarning kriminologik tavsifi”** deb nomlangan ikkinchi bobida hayot va sog'liq bilan bog'liq retsdiv og'ir jinoyatlarda jinoyatchi shaxsining o'ziga xos xususiyatlari, hayot va sog'liq bilan bog'liq retsdiv og'ir jinoyatlarning sodir etilish sabab va sharoitlari, bunday jinoyatlarning asosiy omillari ilmiy-amaliy tahlil qilingan.

“Hayot va sog'liq bilan bog'liq retsdiv og'ir jinoyatlarda jinoyatchi shaxsining o'ziga xos xususiyatlari” deb nomlangan paragrafda retsdiv og'ir jinoyatlarda jinoyatchi shaxsining o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan jinoyat qonunchiligi hamda G.K.Kostrov, V.I.Smironov, L.D.Gauxman, L.V.Serdyuk, R.D.Sabirov, N.I.Boysov, R.D.Sharapov, M.X.Rustambayev kabi olimlarning nazariy qarashlari taxlil qilingan.

Amaldagi jinoyat qonunchiligi retsdiv jinoyatchiligiga ehtiyotsizlik bilan sodir etilgan jinoyatlarni, shuningdek, 18 yoshga to'lmagan shaxs tomonidan qasddan sodir etilgan jinoyatlar kiritilmasligi orqali huquqiy (legal) retsdiv jinoyatlar doirasini keskin toraytirilgan. Faktik (kriminologik) retsdiv takroriy yoki bir nechta jinoyatlarning butun majmuini o'z ichiga oladi va jinoiy faoliyatning barqarorligi darajasini to'liqroq tavsiflaydi.

Jinoyat qonunchiligining tahlili shuni ko'rsatadiki, qonun chiqaruvchi Maxsus qismning ayrim normalarini qurishda «zo'rlik», «jismoniy zo'rlik», «qo'rqitish» kabi jinoiy maqsadlarga erishish uchun jabrlanuvchiga ta'sir qilish usulini aniq va bir xil ma'noda ko'rsatadigan bir qator atamalardan foydalangan.

M.X.Rustambayev, shaxsga nisbatan har qanday tashqi jismoniy yoki ruhiy harakatlar zo'rlik sifatida tan olinishini ta'kidlaydi⁶.

Dissertantning fikricha, zo'rlikning umumiy belgilaridan, zo'rlik bilan sodir etiladigan jinoyatlarga kriminologiya fani nazariyasidagi tushunchalarni shakllantirishda, zo'rlik ishlatib sodir etiladigan tajovuzlar doirasini belgilashda, ularni tasniflashda foydalanish maqsadga muvofiq. Ushbu yondashuvga muvofiq, hayot va sog'liqqa qarshi jinoyatlarda zo'rlik yetakchi yoki muhim rol o'ynagan

⁵ Рустамбаев М.Х. Комментарий к Уголовному кодексу Республики Узбекистан. Общая часть. – С. 306.

⁶ Рустамбаев М.Х. Комментарий к Уголовному кодексу Республики Узбекистан. Особенная часть. – С. 231.

barcha jinoyatlarni kiritilishi maqsadga muvofiq.

Hayot va sog'liqqa nisbatan zo'rlik bilan bog'liq jinoyatlarning retsidivi jinoyatchilikning nisbatan mustaqil qismi bo'lib, u ilgari sudlangan shaxslarning, zo'rlik jinoiy maqsadga erishishning asosiy yoki muhim tarkibiy qismi bo'lgan jinoiy faoliyati barqarorligi bilan tavsiflanadi. Shu maqsadlarda qonun chiqaruvchi tomonidan "zo'rlik", "jismaniy zo'rlik", "qo'rqitish", "qiynoqqa solish", "shafqatsiz muomala" va boshqa zo'rlik sohasiga oid tushunchalarga ta'rif berish maqsadga muvofiqdir.

"Hayot va sog'liq bilan bog'liq retsidiv og'ir jinoyatlarning sodir etilish sabab va sharoitlari" deb nomlangan paragrafda N.B.Kurbonov, M.A.Utanov, A.M.Rustambaev, S.V.Fedyaev, F.Toxirov, L.G.Alimov, M.A.Yefimov, V.A.Shkurko, P.N.Kobes, Yu.S.Pulatov, V.B.Volkov, Yu.A.Djaxbarov, Yu.M.Antonyan, A.Ya.Grishko, A.M.Yakovlev, Ye.G.Gorbatovskaya, Ye.M.Yuskova, A.A.Mazurin kabi olimlarning retsidiv jinoyatlarning sodir etilish sabab va sharoitlari yuzasidan nazariy qarashlari hamda O'zbekistonda 2016-2023 yillarda ilgari jinoyat sodir etgan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar taxlil qilingan.

Respublikada jinoyatlar statistikasi tahlili shuni ko'rsatdiki, yangi ming yillik sharoitida 2018-2023 yillardagi keskin pasayishdan so'ng umumiy jinoyatchilik va avval jinoyat sodir etgan shaxslar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar soni ko'payishi tendensiyasi kuzatilmoqda (*dissertatsiyaning ilovasiga qarang*).

O'rganilgan davr ichida O'zbekistonda oxirgi besh yilda ro'yxatga olingan jinoyatlarning umumiy sonida, ilgari jinoyat sodir etgan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar ulushi 47,3 foizga kamaygan bo'lsa, 2020 yilda o'tgan yilga nisbatan 15,9 foizga oshgan (*dissertatsiyaning ilovasiga qarang*).

Umumiy jinoyatlarning ham, ushbu toifadagi jinoyatlarning ham eng katta qismi – qariyb 90 foizi erkaklar tomonidan sodir etilgan bo'lib, ilgari jinoyat sodir etgan ayol jinoyatchilar ulushi 2016 yildagi 14,4 foizdan keyingi davrlarda pasayib, 2023 yilda 11,5 foizni tashkil etdi (*dissertatsiyaning ilovasiga qarang*).

2020 yilda respublika bo'yicha Ichki ishlar vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan umumiy jinoyatchilikda og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganligi uchun ro'yhatga olingan shaxslarning ulushi mos ravishda 1,1 foiz va 4,0 foizni tashkil etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar sodir etganligi fosh etilgan shaxslar ichida retsidiv 26,8 foizni tashkil etadi.

So'ngra, hayot va sog'liqqa qarshi zo'rlik jinoyatlarining retsidivini tavsiflovchi jinoyatlar dinamikasiga e'tibor qaratsak, 2017 yildan buyon O'zbekiston hududida sodir etilgan boshqa jinoyatlar kabi, butun o'rganish davri davomida pasayish tendensiyasi kuzatilib, 46 foizni tashkil etadi. ularning ulushi 1,1% ga kamaydi. Shu bilan birga, 2020 yilda 2019 yilga nisbatan ushbu jinoyat dinamikasi 3,6 foizga oshgan, ulushi esa 1,4 foizga kamaygan (*dissertatsiyaning ilovasiga qarang*).

Retsidivning o'ziga xos xususiyati qotillik va badanga og'ir shikast yetkazishning yuqori ulushidir – ular hayot va sog'liqqa qarshi ko'rib chiqilgan og'ir jinoyatlar umumiy sonining yarmidan ko'prog'ini (52,5%) tashkil etdi va ularning umumiy jinoyatchilikdagi qo'shma ulushi 2,5% ni tashkil etdi (*dissertatsiyaning ilovasiga qarang*).

Qasddan sodir etilgan qotilliklar va badanga og'ir shikast yetkazishning umumiy sonida ularning katta qismi ikkinchi turdagi jinoyatlarga to'g'ri keladi. Ko'rib chiqilayotgan davrda ularning kamayganiga qaramay, 2019 va 2020 yillarda qotilliklarning ulushi mos ravishda har birida 27,4 foizni, badanga og'ir shikast yetkazish 72,6 foizni tashkil etdi. 2016 yildan buyon qasddan odam o'ldirish va badanga og'ir shikast yetkazish jami soni dinamikasi 2020 yilda 31,7 foizgacha kamaygan bo'lsa, 2020 yilda oldingiga nisbatan 7,9 foizga oshgan (*dissertatsiyaning ilovasiga qarang*).

Respublika bo'yicha so'nggi besh yilda umumiy jinoyatchilik 29 foizga kamaygan bo'lsa, 2020 yildan boshlab o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Biroq, 2020 yilda faqat 4 ta viloyatda (Andijon, Surxondaryo, Farg'ona va Xorazm) jinoyatchilik ko'paygan. Ro'yxatga olingan jinoyatlarning ortish bo'yicha eng katta ulushi Farg'ona viloyati – 1, Toshkent shahar – 2, Toshkent viloyati – 3, Samarqand viloyati – 5, Andijon viloyati – 5 va boshqalarga to'g'ri keladi.

Tadqiqot ishida jinoyatchilik uni sodir etgan shaxsga nisbatan, jinsga ko'ra, yoshga doir dinamikasi va ulushi bo'yicha tahlil qilingan (*dissertatsiyaning ilovasiga qarang*).

2020 yilda retsivistlar tomonidan sodir etilgan barcha jinoyatlarning umumiy sonida qayd etilgan retsivistlarning ulushi quyidagi tartibda taqsimlandi: ilgari JIKda saqlanganlar 36,0 foizni, bir turdagi jinoyatlarni sodir etganlar – 35,6 foizni, ATI o'tash davrida – 24,4 foizni tashkil etdi, hamda o'ta xavfli retsivistlar - 4,0% (*dissertatsiyaning ilovasiga qarang*).

Keltirilgan statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2016-2020 yillar davomida respublika bo'yicha ilgari jinoyat sodir etgan shaxslarning ulushi umuman olganda 3 foizga, o'rtacha har yili 10 foizga kamaygan va 7,6 foizdan 13,6 foizgacha saqlanib turgan. Biroq, 2020 yildan boshlab retsivid jinoyatchilik soni orta boshladi (*dissertatsiyaning ilovasiga qarang*).

Dissertant tomonidan tahlil qilingan 2020 yilda respublika mahallalarida sodir etilgan jinoyatlarning umumiy va uning ayrim turlari bo'yicha statistik ma'lumotlar kriminologik ahamiyatga ega, ulardan ko'rinib turibdiki, respublikamiz umumiy jinoyatchiligining yarmidan ko'pi (57,9%) va muqaddam sudlanganlar jinoyatlarining 57,1 foizi mahalla hududida sodir etiladi, ya'ni mahallalarda sodir etilayotgan har 10-chi jinoyat muqaddam sudlangan shaxslar tomonidan, ko'pincha, hayot va sog'liqqa qarshi og'ir jinoyatlar shaklida sodir etiladi (*dissertatsiyaning ilovasiga qarang*).

Kriminologiyada ko'plab mualliflar, masalan, A.M.Yakovlev, I.I.Karpes, jinoiy xulq-atvor mexanizmida retsivistlar «faol ijodkorlar» sifatida harakat qilishiga e'tibor berishadi. Ular jinoyatlarni sodir etish uchun sharoit izlash va yaratishda qat'iyatliroq, ishtirokchilikda jinoyat sodir etishga uncha moyil emas, ya'ni, ular o'zlarini «yorqin shaxslar» sifatida namoyon qiladilar.

Shundan kelib chiqib, dissertant, hayot va sog'liqqa qarshi retsivid jinoyat sodir etgan jinoyatchi shaxsini to'liq tavsiflash uchun uni quyidagi jihatlardan kelib chiqib ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblagan: a) ehtiyojlar, manfaatlar, motivlar; b) retsivistlarning axloqiy va huquqiy ongi tavsifi; v) retsivistlarning ijtimoiy aloqalari va qarashlari; g) ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyati.

Ilgari jinoyat sodir etgan shaxslarning tipologiyasi turli belgilar va mezonlar asosida tuzilishi mumkin. Yetakchi mezon jinoyiy xatti-harakatlarda namoyon bo'ladigan ma'lum darajadagi jinoyiy faollikdir. Tadqiqot ishida, ushbu yondashuvlardan kelib chiqib retsivistlarning quyidagi asosiy turlari ajratib ko'rsatilgan: ilgari jinoyat sodir etgan shaxslar (faol kriminogen tipga mansub); ilgari situativ tipdagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslar; ilgari g'ayriijtimoiy turdagi jinoyatlar sodir etgan shaxslar; ixtisoslashgan ko'p karralik tipdagi shaxslar.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Axborot markazining statistik ma'lumotlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, muqaddam jinoyat sodir etgan shaxslarning jinoyiy faoliyatining eng katta ulushi Farg'ona viloyatida qayd etilgan, 2016-2020 yillarda u eng yuqori bo'lgan va 2019 yilda bu ko'rsatkich o'zining maksimal darajasiga (27,2%) yetgan.

Muqaddam jinoyat sodir etgan shaxslarning o'ta og'ir jinoyatchilikda jinoyiy faolligining eng yuqori darajasi ko'rib chiqilayotgan butun davr mobaynida Toshkent, Farg'ona, Samarqand viloyatlari va Toshkent shahrida (116 dan 200 tagacha) qayd etilgan(dissertatsiyaning ilovasiga qarang).

Muqaddam jinoyiy javobgarlikka tortilgan shaxslar tomonidan qotillik va badanga og'ir shikast yetkazish bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar, ularning jinoyiy faolligi eng yuqori bo'lgan hududlarda (2016 yildan 2019 yilgacha) qayd etilgan. Qashqadaryo va Namangan viloyatlari yetakchilik qilgan 2016 yil bundan mustasno (*dissertatsiyaning ilovasiga qarang*).

"Hayot va sog'liq bilan bog'liq retsivid og'ir jinoyatlarning asosiy omillari" deb nomlangan paragrafda Yu.S.Pulatov, A.K.Zakurlayev, A.M.Babishov, D.Muradova, R.Z.Zaynutdinov, R.M.Maxmudov, M.A.Utanov, M.A.Musayev, I.Ismoilov, Q.R. Aburasulova, I.Yu. Fazilov, M.Z.Muqumova, M.X.Jiyanov, M.Sh.Najimov, N.S.Salayev, Z.S.Zaripov, A.Shamansurov, Sh.X.Inogamov, Ch.A.Sattorov, R.R.Shakurov kabi olim va mutaxassislarning retsivid jinoyatchilikning shart-sharoitlari (omillari)ni o'rganish bo'yicha nazariy qarashlari chuqur taxlil qilingan.

Retsivid jinoyatchilikning subyektiv va obyektiv shart-sharoitlarini (omillarini) o'rganishda kriminogen omillarning kamida ikkita guruhini hisobga olish zarur: 1) umumiy jinoyatchilik tuzilishi va dinamikasi holatini belgilovchi kriminogen omillar; 2) aynan hayot va sog'liqqa qarshi retsivid jinoyatchilikka eng kuchli ta'sir ko'rsatadigan maxsus kriminogen omillar.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, hayot va sog'liqqa qarshi jinoyatlarni sodir etadigan retsivist jinoyatchilarda muammoli vaziyatlarda birlamchi jinoyatchilarga qaraganda kengroq miqyosda tajovuzkor xatti-harakat qilish ustunlik qiladi. Ikkinchi turdagi jinoyatchilarda muammoli vaziyatlarni hal qilishning boshqa variantlari, shu jumladan nizo yuzaga kelganda har qanday faol harakatdan qochish munosabati shakli saqlab qolinadi.

Hayot va sog'liqqa qarshi sodir etiladigan og'ir jinoyatlarning umumiy majmuini tahlil qilganda, ulardan oldin yuzaga kelgan kriminogen vaziyatlarning ikki turi sezilarli darajada ajralib turadi: bir martalik mojaro va barqaror kriminogen vaziyat. 22,7% hollarda qasddan odam o'ldirishdan oldin bir martalik mojaro va 77,3% hollarda barqaror kriminogen vaziyat yuzaga kelgan; qasddan badanga og'ir

shikast yetkazishda, mos ravishda - 32,3 va 67,6% (dissertatsiyaning ilovasiga qarang). Agar biz bir martalik mojaro deb atagan vaziyat tagida, aslida, tomonlarning oldingi xatti-harakatlari bilan murakkablashgan chuqur salbiy munosabatlar yotishini hisobga olsak, u holda ular insonga ta'sirining kuchi bo'yicha barqaror kriminogen vaziyatga juda o'xshashdir. Bundan kelib chiqadiki, deyarli barcha qotilliklar boshqalar uchun kutilmaganda sodir bo'lmagan, balki huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlarining e'tiboridan chetda qolishi mumkin bo'lmagan, vaziyatning ozmi-ko'pmi uzoq davom etish davriga ega bo'lgan.

Ushbu paragrafda dissertant tomonidan shaxsga nisbatan zo'rlikda namoyon bo'ladigan retsdiv jinoyatlarni tahlil qilgan xolda, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida jiddiy kamchiliklarni uch bosqichda, ya'ni, 1) dastlabki va sud tergov bosqichi; 2) tayinlangan jazoni ijro etish bosqichi; 3) postpenitensiar profilaktik ta'sir bosqichiga bo'lib o'rgangan.

O'zbekiston Respublikasi JIKning 171-moddasi ikkinchi qismida ozod etilgan mahkumlarning mehnat va maishiy xizmat ko'rsatish hamda boshqa turdagi ijtimoiy yordamga bo'lgan huquqlari eng umumiy shaklda mustahkamlangan. Shu munosabat bilan tadqiqotchi tomonidan ushbu moddaning ikkinchi qismini uchinchi deb hisoblash, ikkinchisini esa JIK 171-moddasiga quyidagi tahrirda kiritish taklif etilgan:

“Ozodlikdan mahrum qilish joylaridan ozod qilingan mahkumlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq mehnat va maishiy xizmat ko'rsatish hamda boshqa turdagi ijtimoiy yordam olish huquqiga ega” (*dissertatsiyaning ilovasiga qarang*).

Dissertatsiyaning **“Hayot va sog'liq bilan bog'liq retsdiv og'ir jinoyatlarni oldini olish”** deb nomlangan uchinchi bobi hayot va sog'liq bilan bog'liq retsdiv og'ir jinoyatlarning oldini olinishni jinoiy-huquqiy ta'minlash, hayot va sog'liq bilan bog'liq retsdiv og'ir jinoyatlarni maxsus oldini olish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning hayot va sog'liq bilan bog'liq retsdiv og'ir jinoyatlarni oldini olish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishga bag'ishlangan.

“*Hayot va sog'liq bilan bog'liq retsdiv og'ir jinoyatlarning oldini olinishini jinoiy-huquqiy ta'minlash*” nomli paragrafda xorijiy va milliy olimlarning nazariy qarashlari asosida retsdiv og'ir jinoyatlarning oldini olinishni jinoiy-huquqiy jihatlari tahlil qilingan.

XXI asr boshlari sharoitida kriminologiyada huquqbuzarliklar profilaktikasining turli muammolarini nazariy jihatdan ishlab chiqishga O'zbekiston bir qator olimlari, shu jumladan: U.A.Abdug'aniyev, K.R.Abdurasulova, G.U.Axmedova, Z.S.Zaripov, I.Ismoilov, M.A.Musayev, J.A.Ne'matov, Yu.S.Pulatov, A.K.Rasulev, M.X.Rustamboyev, M.Q.O'razaliev, T.X. Xasanov va boshqalarning ishlari bag'ishlangan.

Shunday qilib, turli tadqiqotchilarning fikrlarini inobatga olgan holda, *hayot va sog'liqqa qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan og'ir retsdiv jinoyatlarni umumiy oldini olish ostida jinoyat-huquqiy majmua qonunchiligi, shuningdek, uni qo'llash amaliyoti va jinoiy jazoning o'zi tomonidan fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan og'ir retsdiv jinoyatlarni takroran sodir*

etishdan qaytarishga qaratilgan ongli va ongsiz darajadagi psixologik va tarbiyaviy ta'sirini tushunish, dissertant tomonidan taklif etilgan.

Jinoyat sodir etilishidan oldingi nizoga kelsak, o'rganilgan jinoyat ishlariga ko'ra, nizo kelib chiqishida: 45,3% hollarda – jinoyatchilar; 15,1% - jabrlanuvchilar va 39,6% hollarda har ikki tomon ham mojaroda bir xil darajada aybdor (*dissertatsiyaning ilovasiga qarang*).

Ekspert sifatida biz o'tkazgan so'rovda qatnashgan huquq-tartibot idoralari xodimlarining fikricha, amaliyotida uchragan holatlar orasida jabrlanuvchilar tomonidan qo'zg'atilgan provokatsiya: qotillik – 23,3%, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish – 26,2%, qasddan badanga o'rtacha og'irlikdagi shikast yetkazish – 43,7% va 48,5%. qasddan badanga yengil shikast yetkazishga olib kelgan (*dissertatsiyaning ilovasiga qarang*).

O'tkazilgan o'rganish shuni ko'rsatdiki, muqaddam sudlanganlar hayot va sog'liqqa qarshi jinoyatni takroran sodir etishga: 23,3% – jazosiz qolishga umid qilib; 44,4 – jinoyat sodir etishda omadiga ishonib; 32,3% – loqaydlik bilan boradi (*dissertatsiyaning ilovasiga qarang*).

Jazosiz qolishga ishonch bilan bog'liq holda, zo'ravon jinoyatchilarning zo'rlik jinoyatlarini fosh etilishi va latentligi haqidagi tasavvurlari qiziqish uyg'otadi. Qasddan odam o'ldirish va badanga qasddan og'ir shikast yetkazishning latentligi haqidagi g'oyalar zo'rlik bilan sodir etilgan jinoyatlar uchun hukm qilinganlarda, mahkumlarning 16,7 foizida qotillik latentligi haqidagi tasavvurlari, 83,3% da qasddan og'ir shikast yetkazish bo'yicha latentlik to'g'risidagi tasavvurlar, boshqa zo'rlik ishlatib sodir etiladigan og'ir jinoyatlar latentligi to'g'risidagi tasavvurlar 66,6% respondentlarda haqiqatga to'g'ri kelmaydi (*dissertatsiyaning ilovasiga qarang*).

Qizig'i shundaki, hayot va sog'liqqa qarshi zo'rlik bilan sodir etilgan jinoyat uchun sudlanganlar orasida 78,9 foizi muqaddam zo'rlik bilan sodir etilgan jinoyatlar uchun hukm qilingan. Muqaddam sudlanganlarning 47,8 foizi bir marta; 24,4% - ikki marta; 15,6% - uch marta; 8,9% - to'rt marta va 3,3% - besh marta sudlangan (*dissertatsiyaning ilovasiga qarang*).

Shunday qilib, muqaddam sudlangan shaxslar ichida eng ko'pi og'irlashtiruvchi holatlarda odam o'ldirish jinoyatini sodir etganlar taxlil etadi. Hayot va sog'liqqa qarshi zo'rlik bilan sodir etgan jinoyati uchun ilgari sudlangan shaxslar ichida sog'liqqa qasddan o'rtacha og'irlikdagi shikast yetkazganlar ulushi eng katta, sog'liqqa og'ir shikast yetkazganlar ulushi biroz kamroq va qotillar ichida bu ko'rsatkich eng past.

Jinoyat sodir etgan shaxslarga ehtiyot chorasini to'g'ri tanlash, ham umumiy jinoyatchilikni oldini olishda, ham, umuman jinoyatlar oldini olishda muhim omil hisoblanadi. Jinoyat ishlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, 18,2 foiz hollarda retsdiv jinoyat, ilgari sodir etgan jinoyati uchun ehtiyot chorasi qo'llanilgan shaxslar tomonidan sodir etilgan (*dissertatsiyaning ilovasiga qarang*). Bu ko'rsatkich ushbu shaxslarga nisbatan ehtiyot chorasi ularning individual xususiyatlarini inobatga olmasdan tanlanganligi va ehtiyot chorasi tanlangandan keyingi xatti-harakati to'g'ri prognoz qilinmaganligini ko'rsatadi.

Hayot va sog'liqqa qarshi sodir etgan jinoyati uchun sudlangan shaxslar o'rtasida

o'tkazilgan so'rov shuni ko'rsatdiki, respondentlarning 23,3 foizi guruh tarkibida jinoyat sodir etgan. Ulardan 76,2 foizi bir o'zi bu jinoyatni sodir etmagan bo'lardi, 17,8 foizi – hukm qilingan jinoyatni baribir sodir etgan bo'lardi, respondentlarning 1,8 foizi esa berilgan savolga javob berishga qiynalgan (*dissertatsiyaning ilovasiga qarang*).

Ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan mahkumlar o'rtasida o'tkazilgan so'rov shuni ko'rsatdiki, o'rganilgan hayot va sog'liqqa qarshi zo'rlik jinoyatlarining 18,2 foizi oldindan o'ylangan niyat bilan qasddan sodir etilgan.

«Siz jinoyat sodir etishga oldindan tayyorgarlik ko'rganmisiz?» degan savolga, o'rganilayotgan jinoyatlar uchun sudlangan shaxslarning 10,7 foizi ijobiy javob berdi. Oldindan o'ylangan qasd: 45,9% hollarda - jinoyat qurolini tayyorlashda; 40,5 foizida – jinoiy guruh a'zolari o'zaro jinoyat sodir etishga kelishib olganida, 24,3 foizida esa jinoyatni sodir etish rejasini tuzish va uni sodir etish joyini tanlashda ifodalangan (*dissertatsiyaning ilovasiga qarang*). Oldindan qasddan o'ylangan retsdiv jinoyat sodir etish holatlarida, shaxs jinoyat sodir etishdan oldin barcha ijobiy va salbiy tomonlarni sinchiklab baholaganda, umumiy oldini olish samara bermaydi.

Jinoyatlarning umumiy oldini olish uchun fuqarolarning jinoyatlar latentligi va fosh etilishi borasida haqiqiy tasavvurlarga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Jumladan, umumiy oldini olish ta'sirining samaradorligini baholash uchun latent jinoyatchilik tizimli o'rganishlari amalga oshirilishi lozim.

Huquqning umumiy oldini olish funksiyasini faollashtirish uchun aholini huquqiy xabardor qilishda huquqbuzarliklar profilaktikasi barcha subektlari tomonidan faol sa'y-harakatlar amalga oshirilishi zarur⁷. Bu, ayniqsa, yangi Jinoyat, Jinoyat-ijroiya va Jinoyat-protsessual kodekslarning qabul qilinishi munosabati bilan dolzarb bo'lmoqda, ular jinoyatlar sabablari va shartlarini bartaraf etish bilan bog'liq umumiy oldini olishni kuchaytirishi kerak.

Retsdiv jinoyat uchun oshirilgan javobgarlikni belgilash ko'pgina xorijiy davlatlarda mavjud. Xususan, tadqiqot ishida AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya kabi davlatlarning qonunchiligida sud og'ir jinoyat sodir etganlikda ayblangan shaxsni uzaytirilgan muddatli jazoga hukm qilishi bilan bog'liq masalalar taxlil qilingan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksida jazoni o'tagan shaxslarning huquqiy maqomi belgilanmagan. O'zbekiston Respublikasi JIKga yangi norma – 170¹-modda (Jazoni o'tagan shaxslarning huquqiy maqomi)ni yangi tahrirda kiritishni taklif etilgan.

Jinoyat qonunchiligidagi o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasining JPKga tegishli o'zgarishlar kiritishni mantiqan belgilab beradi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi JPKning sud tomonidan cheklovlar o'rnatish, shuningdek, qidiruvda bo'lgan gumonlanuvchini ushlab va basharti unga nisbatan qidiruv e'lon qilingan bo'lsa va u yashiringan joy aniqlangan bo'lsa, unga nisbatan ehtiyot chorasini qo'llashni tartibga soluvchi moddalarga o'zgartishlar kiritish zarur.

Sud tomonidan mahkumga jazoni o'tash tugallanishi davrida, ya'ni jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati iltimosnomasi asosida belgilanishi mumkin bo'lgan

⁷ Қаранг.: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 ноябрдаги ПФ-27-сон Фармони 1-сон Иловаси 6-банди // <https://lex.uz/docs/5749291>.

cheklovlardir. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi JPKga quyidagi tahrirdagi yangi norma – 542¹-moddasi (Ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxsga nisbatan koloniyadan ozod qilinguniga qadar cheklovlar belgilash masalasini ko'rib chiqish)ni kiritish taklif qilinmoqda:

Qattiq va alohida tartibli koloniyalardan ozod etilgan shaxslarga nisbatan sud tomonidan cheklovlarni o'rnatish to'g'risidagi qoidalarni amalga oshirish mexanizmi, eng avvalo, ozodlikdan mahrum qilish joylarida amal qilishi sababli, jinoyat-ijroiya qonunchiligida ushbu muassasalar ma'muriyati tomonidan iltimosnomalar va ularni asoslovchi materiallarni tayyorlash va sudga taqdim etilishi tartibini belgilash zarurati tug'iladi.

“Hayot va sog'liq bilan bog'liq retsidiv og'ir jinoyatlarni maxsus oldini olish” nomli paragrafda Yu.S.Pulatov, I.U.Ismoilov, U.O. Mamadaliyev, D.X.Xamidov, Ch.A.Sattorov, A.M.Vorobev, V.A.Dubovsev, M.Q. O'razaliyev, M.A. Utanov, X.M. Abzalova, N.T.Ismoilov, A. Ibragimov, D.K.Xamidov, G.U. Axmedova, R. Kadirov, J.S.Muxtorov va boshqa olimlarning nazariy qarashlari asosida og'ir retsidiv jinoyatlarni maxsus oldini olish masalalari huquqiy tahlil qilingan.

Umumijtimoiy oldini olishdan farqli o'laroq, maxsus oldini olish jinoyatlarning alohida turlari va guruhlari, individual darajada esa – konkret jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan.

Maxsus oldini olishning yana bir xususiyati shundaki, u maxsus subyektlar, asosan huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati orqali amalga oshiriladi. Bu jinoyatlarning oldini olish va ularni to'xtatish bo'yicha alohida kompetensiyaga ega bo'lish zarurati bilan bog'liq. Dissertantning fikricha, hayot va sog'liqqa qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan og'ir retsidiv jinoyatlarni maxsus oldini olish, tegishli huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan organlar, tashkilot va muassasalar tomonidan amalga oshirilib, ushbu jinoyatlar profilaktikasi, to'xtatish va ularga chek qo'yishdan iborat.

Muqaddam sudlanganlar tomonidan yangi jinoyatlar sodir etilishining maxsus oldini olish bir qator vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Ekspert so'rovida qatnashganlarning 70,9 foizi JIEMdan ozod etilgan shaxslar ustidan nazoratni amalga oshirishda profilaktika inspektorlarining faoliyati samaradorligi yetarli emasligi haqidafikr bildirilgan (*dissertatsiyaning ilovasiga qarang*).

Tadqiqotchining fikricha, jinoyatlarning maxsus oldini olish ta'siri samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan quyidagilar juda muhim: jinoyat qonuni darajasida amalga oshirilgan javobgarlikni yanada chuqurroq differentsiatsiya qilish; mavjud ozodlikdan mahrum qilishga qaratilmagan choralar mazmunida javobgarlikni oshirish, masalan, jarima miqdorini oshirish; maxsus postpenitensiar xizmatni tashkil etish, u nafaqat ozodlikka chiqqanlarni nazorat qiladi va kuzatadi, balki ko'p jihatdan ularning jamiyatga tezroq va mustahkamroq moslashishiga qaratilgan ijtimoiy yordam beradi.

“Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning hayot va sog'liq bilan bog'liq retsidiv og'ir jinoyatlarni oldini olish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish” nomli paragrafda xorijiy va milliy tajribani qiyosiy-huquqiy tahlil qilish asosida hayot va sog'liq bilan bog'liq retsidiv og'ir jinoyatlarni oldini olish bo'yicha huquqni

muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini rivojlantirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Dissertantning ta'kidlashicha, tadbirkorlarni jazoni ijro etish muassasalari ishida ishtirok etishga iqtisodiy jihatdan rag'batlantirish kerak – bu soliqqa tortish yo'nalishi, ozodlikdan mahrum qilish joylarida ish o'rinlarini yaratishdagi imtiyozlar, ish o'rinlari kvotalari bilan ta'minlash bo'yicha shartnomalar tuzib, kelgusida soliqqa tortish, bojxona va boshqa to'lovlarda imtiyozlar berish shaklida bo'lishi mumkin.

Tadqiqotchining fikricha, bunga keng yo'l ochish kerak. Birinchidan, bu, umumiy olganda, jamiyatimiz siyosiy-huquqiy tafakkuri, xususan, jinoyat huquqi fanining rivojlanishiga mos keladi. Ikkinchidan, bu ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni o'tashning jahon andozalariga mos kelishi muammosini hal qilmaydi. Davlat bu muammolardan chetlashmasdan, tadbirkorlar, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik asosida jazoni ijro etish tizimi faoliyatini takomillashtirish ishlarini markazlashgan holda amalga oshirishi kerak.

Jazoni o'tab bo'lganlar, axloqan tuzalishi uchun zarur hollarda ijtimoiylashuv jarayonini muvaffaqiyatli yakunlashda, shuningdek, retsdiv oldini olishda yagona shart postpenitensiar ta'sir ko'rsatish hisoblanadi.

Retsdivstlarni kuzatish nazorat tizimi (SMART) Politsiya departamenti (RPD) va Vashington shtatining ahloq-tuzatish departamenti (DOC) o'rtasidagi hamkorlik negizida yaratilgan. Bu ikki muassasa nafaqat jinoyat sodir etgan jinoyatchilar muammosi bilan, balki huquqbuzarliklarning oldini olish masalasi bilan shug'ullanadigan tashkilotlarga aylangan. RPD va DOC departamentlari tomonidan yaratilgan dastur doirasida xodimlari o'qitiladi va ularning hududida yashovchi jinoyatchilarni politsiya bevosita kuzatib boradi.

SMART dasturining ikkinchi qismi politsiya xodimlarining kuzatuv ostidagi sobiq jinoyatchilar bilan tasodifiy aloqalari haqida DOCga ma'lumot berish tizimini tartibga soladi. DOC nazorat ostidagi jinoyatchilarni tekshirish uchun kompyuterlashtirilgan orderlarni beradi. Politsiyachilar aloqalariga oid ma'lumotlar har hafta DOC tomonidan qabul qilinadigan va keyin turli politsiya bo'limlari tomonidan foydalaniladigan bildirishnomalarida qayd etiladi. Bildirishnomada nazorat ostidagi jinoyatchilar tomonidan ijtimoiy tartibot qoidalarini buzganlik haqidagi barcha ma'lumotlar qayd etiladi.

Yuqoridagi dasturlarning hech biriga o'xshashi bizda yo'q. Lekin keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining jazoni ijro etuvchi va ichki ishlar organlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik ancha kuchaygan. Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlikda va jinoyat sodir etishda gumon qilinib ushlangan shaxsning jinoiy o'tmishini, shuningdek, ushbu jinoyatning retsdivini oldini olish samaradorligini aniqlash imkonini beruvchi axborot almashinuvi tizimi yo'lga qo'yilmoqda.

Hozirgi vaqtda davlat ilgari mavjud bo'lgan amaliyotdan butunlay voz kechib, buning evaziga hech qanday yangilik kiritmasdan, oldini olish faoliyati imkoniyatini ancha zaiflashtirdi. Masalan, ishni o'rtoqlik sudiga o'tkazish, kafillikka berish, ommaviy tanbeh kabi rehabilitatsiya deb hisoblanmaydigan holatlar bo'yicha jinoyat ishini tugatishda bunday asoslar bekor qilinishi to'g'riligiga hech kim shubha qilmaydi.

1998 yilda Eldjin shahrida ishlab chiqilgan dasturlardan biriga ko'ra, politsiya o'z xodimlarini eng jinoiy hududlarga joylashtiradi va ular doimiy aholi bilan birgalikda hududdagi jinoyatlarning sabablari va shartlarini aniqlaydilar, jinoiy hujumlar faktlariga munosabat bildirishadi. Mazkur dasturning qo'llanilishi tegishli hududlarda jinoyatchilikning 20 foizga kamayishiga olib kelgan⁸.

Bugungi kunda politsiya faoliyati quyidagi prinsiplarga asoslanadi: 1. Yaqinlik; 2. Moslashuvchanlik; 3. Avtonomlik.

Bu ijobiy tajriba O'zbekiston uchun ham maqbuldir.

Yuqoridagilarga asoslanib, barchasini umumlashtirib, shuni yodda tutish kerakki, sudlanganlik soni, yoshi va retsidivist shaxsining aksilijtimoiy motivlarining barqarorligiga (kriminologik tushuncha) qarab, retsidivning individual oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar tegishli dasturini tuzish kerak.

Muallif, sudlanganlik holatlarini soniga ko'ra quyidagi shaxs tiplariga ajratadi: a) faol kriminogen tip; b) beqaror kriminogen tipi; v) ahloqsizlashgan kriminogen tipi.

Hayot va sog'liqqa qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan retsidiv jinoyatlarni oldini olishda tezkor bo'linmalar alohida o'rin tutadi. Zero, profilaktika ishlarga operativ tuzilmani jalb etish profilaktika ishlarini amalga oshirishda katta imkoniyatlar yaratadi.

Dissertantning fikricha, hayot va sog'liqqa qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan og'ir retsidiv jinoyatlarni oldini olish murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy jarayon bo'lib, u quyidagilarga asoslanishi kerak:

- a) qonunlarga, inson huquq va erkinliklariga rioya qilish;
- b) huquqbuzarliklar oldini olish chora-tadbirlarini rejalashtirish;
- v) huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jamoat tashkilotlarining birgalikdagi faoliyati (ijtimoiy nazorat);
- g) oldini olish faoliyatining barcha subyektlari sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish;
- d) ilmiy asosda ishlab chiqilgan "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonun;
- ye) jinoyatning ijtimoiy va biologik omillarini hisobga olinishi.

Jinoyatchilik darajasini, shu jumladan, qonun hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish orqali sun'iy ravishda pasaytirish, shaxsga qarshi retsidiv jinoyatchilik va umuman jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirishga yordam bermaydi.

Yuqorida aytilganlarning barchasi shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan retsidiv jinoyatlarining oldini olish va fosh etishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

XULOSA

Tadqiqot natijasida hayot va sog'liqqa qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyat-huquqiy va kriminologik retsidivini kompleks o'rganish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

⁸ Қаpaнr.: Jane,s International Police Review, Great Britain, 1999, Jssue № 11, Marht/April. Koknar A.M. The trade in materios for mass destruction. P. 24-25.

1. Hayot va sog'liqqa qarshi og'ir retsidiv jinoyatlar tushunchasi: *“hayot va sog'liqqa qarshi jinoiy faoliyatning nisbatan mustaqil turi bo'lib, ilgari sudlangan. hayot va sog'liqqa qarshi zo'rlik bilan sodir etiladigan og'ir jinoyatlarni sodir etadigan shaxslar tomonidan, zo'rlik jinoiy maqsadga erishishda asosiy yoki muhim element hisoblangan qilmishlarni sodir etishi barqarorligi bilan tavsiflanadi”*.

2. Quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga kelindi:

2.1. Muqaddam zo'rlik ishlatib jinoyatlarni sodir etgan ko'plab shaxslar jinoiy ma'noda professional hisoblanadi, shu boisdan ularning retsidiv jinoyati faoliyati ko'pincha latent holda qolib ketadi.

2.2. Hayot va sog'liqqa qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan retsidiv jinoyat bir qator o'ziga xos jihatlariga ega: a) jismoniy va ruhiy zo'rlik; b) ularni sodir etgan shaxslarning kriminal faolligi; v) retsidivist jinoyatchining noqonuniy faoliyatga begona shaxslarni, ko'pincha o'smir va yoshlarni jalb qilishga intilishi, ayni damda retsidivning o'zi o'rganilayotgan jinoyatlar guruhining negizi deb ko'riladi; g) retsidivist shaxsining ijtimoiy sifatlari yig'indisi, jumladan, ta'lim va madaniyat darajasi pastligi, ish staji mavjud emasligi, axloqiy ongidagi nuqsonlar, faol jinoiy faoliyat va boshqa.

2.3. Hayot va sog'liqqa qarshi zo'rlik ishlatib og'ir jinoyatlarni sodir etadigan retsidivistning “yig'indi” portreti (kriminologik jihatdan) tuzilgan: aksariyat hollarda u erkak jinsiga mansub; o'rtacha yoshi – taxminan 37 yosh; ko'pincha oilasiz yoki uni yo'qotgan; to'liq bo'lmagan o'rta ma'lumotli; ko'pincha mutaxassisligi va ishi yo'q; ko'pincha o'z uy-joyiga ega yoki qarindoshinikida yashaydi; bir nechta sudlanganlikka ega (odatda 3-4); voyaga yetmagan yoshida jinoiy faoliyatni boshlagan; spirtli ichimliklarga, ba'zan esa giyohvand moddalarni iste'mol qilishga moyil; jazodan, hatto ozodlikdan mahrum bo'lishdan ham qo'rqmaydi.

2.4. JIEMda retsidiv jinoyatlarni sodir etilishiga yordam beruvchi quyidagi shart-sharoitlar aniqlandi: a) rejimning ta'siri zaifligi; b) mahkumlarga nisbatan qo'llaniladigan tarbiyaviy choralar va JIEM xodimlari ixtiyorida mavjud vositalar samaradorligi pastligi.

II. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan takliflar:

O'zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi Qonuni talablariga muvofiq quyidagilar taklif qilinadi:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish maqsadga muvofiq:

1.1. O'zbekiston Respublikasi JKning 34-moddasi 6-qismini, O'zbekiston Respublikasi JKning 17 va 81-moddasi birinchi qismlarida ko'rsatilgan yoshga moslashtirilish uchun, O'zbekiston Respublikasi JKning 34-moddasi 6-qismida «18 yosh» so'zlari «16 yosh» so'zlari bilan almashtirish.

1.2. Ozodlikdan mahrum qilish joylaridan ozod qilingan shaxslar o'z yashash joyiga kelishdan va ma'muriy nazoratdan bo'yin tovlashini hisobga olib, JKning 56-moddasini “p” bandi bilan to'ldirib, uni quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq: *“p) sud hujjatini ijro etishdan ashaddiy ravishda bo'yin tovlayotgan shaxslarga nisbatan”*.

2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish maqsadga muvofiq:

2.1. Hozirgi O‘zbekiston Respublikasi JPKning 221-moddasi 4-qismi (gumon qilinuvchi, ayblanuvchi qidiruvi) gumon qilinuvchini qamoqqa olish yoki unga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash (4-qismi) imkoniyatini nazarda tutmasligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 221-moddasi 4-qismini “yoki u qidiruvda bo‘lgan” degan so‘zlar bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq.

2.2. JPKning 221-moddasi 4-bandiga qo‘shimchalar kiritilishi munosabati bilan quyidagilarning amalga oshirilishini lozim deb hisoblaymiz:

- JPKning 236-moddasi 2-qismini: “va u O‘zbekiston Respublikasi JPK 221-moddasiga muvofiq qidiruvda bo‘lganda”;

- O‘zbekiston Respublikasi JPKning 243-moddasi 1-qismini qamoqqa olish uchun asos sifatida: “shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 221-moddasiga muvofiq qidiruvda bo‘lganda”;

- 242-moddasi ikkinchi qismining ikkinchi bandida: “yoki u qidiruvda bo‘lganda” so‘zlari bilan tugatish;

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 243-moddasi birinchi qismini quyidagi so‘zlar bilan tugallash taklif etiladi: “shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 221-moddasiga muvofiq qidiruvda bo‘lgan shaxs aniqlanganda”.

3. Ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxsga nisbatan koloniyadan ozod etilgunga qadar cheklov o‘rnatish maqsadida quyidagi tahrirdagi yangi norma – O‘zbekiston Respublikasi JPK 542¹-moddasi kiritish maqsadga muvofiq:

“542¹-modda. Ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxsga nisbatan koloniyadan ozod qilinguniga qadar cheklovlar belgilash masalasini ko‘rib chiqish

Jazoni ijro etish koloniyasida og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etgani uchun jazoni o‘tayotgan mahkumga koloniyadan ozod etilgunga qadar quyidagi cheklovlar qo‘llanilishi mumkin:

sodir etgan qasddan og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxs jazoni o‘tash davrida va ozodlikka chiqqandan so‘ng, bunday aloqani istamasa, jabrlanuvchi bilan yozishmalarni yoki boshqa aloqalarni (telefon qo‘ng‘iroqlari, xatlar yuborish, o‘zi yoki uning iltimosi bilan boshqa shaxslar tomonidan yashash joyiga borishi, shuningdek boshqa xizmatlar ko‘rsatish) ta‘qiqlash;

jabrlanuvchi, guvoh, xolislar, hamda u tomonidan sodir etilgan va hozirda jazoni o‘tayotgan jinoyati yoki muqaddar sodir etgan jinoyati bo‘yicha ishda ishtirok etgan jinoyat protsessining boshqa subyektlari manfaatlariga zid bo‘lgan turli bitimlarni amalga oshirish”.

3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya Kodeksiga quyidagi mazmunda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish lozim:

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksida jazoni o‘tagan shaxslarning huquqiy maqomini belgilaydigan norma mavjud emasligini hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasi JPKni quyidagi tahrirdagi 170¹-modda bilan to‘ldirish taklif etiladi:

“170¹-modda. Jazoni o‘tagan shaxslarning huquqiy maqomi

Jazoni o‘tagan shaxslar, sudlanganlikka ega shaxslar uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan cheklovlar hisobga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi

fuqarolari uchun belgilangan majburiyatlar va huquqlarga ega”.

2. O‘zbekiston Respublikasi JIKning 171-moddasi ikkinchi qismida ozod etilgan mahkumlarning mehnat va maishiy xizmat ko‘rsatish hamda boshqa turdagi ijtimoiy yordamga bo‘lgan huquqlari eng umumiy shaklda mustahkamlanishi nazarda tutilganini hisobga olgan holda, ushbu moddaning 2-qismini uchinchi deb hisoblash, ikkinchisini esa quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

2.1. *“Ozodlikdan mahrum qilish joylaridan ozod qilingan mahkumlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq mehnat va maishiy xizmat ko‘rsatish hamda boshqa turdagi ijtimoiy yordam olish huquqiga ega”.*

2.2. Jazoni ijro etish muassalarining ichki ishlar organlari bilan o‘zaro hamkorligini oshirish maqsadida, JIKning 171-moddasi 3-qismini to‘ldirib, matni quyidagi so‘zlar bilan tugallash taklif etiladi: *“shuningdek, ichki ishlar organlari bilan birgalikda qattiq, alohida rejimli koloniyalardan va turmalardan ozod qilinayotgan mahkumlar bilan suhbatlar o‘tkazish”.*

3. O‘zbekiston Respublikasi JIKga quyidagi tahrirdagi yangi norma — 173¹-moddani kiritish lozim:

“173¹-modda. Jazoni o‘tab bo‘lganidan so‘ng ozodlikka chiqarilayotgan shaxsga nisbatan cheklovlar o‘rnatish:

Jazoni ijro etish koloniyasida og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etgani uchun jazoni o‘tayotgan mahkumga koloniyadan ozod etilgunga qadar quyidagi cheklovlar qo‘llanilishi mumkin:

sodir etgan qasddan og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxs jazoni o‘tash davrida va ozodlikka chiqqandan so‘ng, bunday aloqani istamasa, jabrlanuvchi bilan yozishmalarni yoki boshqa aloqalarni (telefon qo‘ng‘iroqlari, xatlar yuborish, o‘zi yoki uning iltimosi bilan boshqa shaxslar tomonidan yashash joyiga borishi, shuningdek boshqa xizmatlar ko‘rsatish) ta‘qiqlash;

jabrlanuvchi, guvoh, xolislar, hamda u tomonidan sodir etilgan va hozirda jazoni o‘tayotgan jinoyati yoki muqaddar sodir etgan jinoyati bo‘yicha ishda ishtirok etgan jinoyat protsessining boshqa subyektlari manfaatlariga zid bo‘lgan turli bitimlarni amalga oshirish”.

4. O‘zbekiston Respublika quyidagi qonunlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish:

4.1. O‘zbekiston Respublikasining “Retsidiv jinoyatchilikni oldini olish to‘g‘risida”gi qonunini ishlab chiqish taklif etiladi. Uning asosini quyidagi bo‘limlar tashkil etadi: 1) retsidiv jinoyatchilik tushunchasi; 2) retsidiv jinoyatchilik xususiyatlari; 3) jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha respublika chora-tadbirlari; 4) viloyat, tuman, shahar, mahalla miqyosida hal etiladigan retsidiv jinoyatchilikka qarshi kurashish masalalari; 5) retsidiv jinoyatchilikni oldini olish subyektlari; 6) Yakuniy qoidalar.

4.2. O‘zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunining 46-moddasi 1-qismini xalqaro va konstitutsiyaviy qoidalarga muvofiqlashtirish uchun, yangi tahrirda bayon etish:

“O‘ziga nisbatan profilaktika chorasi amalga oshirilayotgan fuqarolar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonun hujjatlari va O‘zbekiston

Respublikasining xalqaro shartnomalarida kafolatlangan huquq va erkinliklarga ega. Davlat majburlov choralari, shaxsiy va oilaviy sirni cheklash, xulq-atvoriga nisbatan majburiy talablarni qo'yish bilan bog'liq boshqa choralarni qo'llanishiga faqat qonun hujjatlarida yoki unga muvofiq qabul qilingan boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda va tartibda yo'l qo'yiladi".

4.3. Qattiq yoki alohida tartibli koloniyalarda yoki turmada jazoni o'tab, ozodlikka chiqqan shaxsga nisbatan cheklovlar ichki ishlar organi tashabbusi bilan sud tomonidan belgilanishini hisobga olib, O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonunining 16-moddasi 1-qismini 20-bandini quyidagi so'zlar bilan to'ldirish lozim: *"ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxsga nisbatan ilgari jazoni ijro etish muassasasida bo'lgan davrda cheklovlar belgilanmagan; ozodlikda bo'lib, sud hujjatini ijro etishdan bo'yin tovlasa, O'zbekiston Respublikasi JPKning 546¹-moddasi asosida cheklovlar o'rnatish to'g'risida sudga iltimosnoma kiritish".*

4.4. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 apreldagi O'RQ-532-sonli "Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat to'g'risida"gi Qonunining 8-moddasi 3-bandi quyidagi mazmundagi 4-band bilan to'ldirish: *"jazoni ijro etish uchun muassasadan ozod qilingan, uzrsiz sabablarga ko'ra tanlagan yashash joyiga o'z vaqtida yetib kelishdan bo'yin tovlagan shaxsga nisbatan;"* hamda qolgan bandlarni tegishli tartibda joylashtirish lozim.

4.5. «Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat to'g'risida»gi Qonunning 8-moddasi 3-bandiga kiritilgan qo'shimchalarni ijro etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi JIK 171-moddasi 3-qismi va 173¹-moddasi, O'zbekiston Respublikasi 2016 yil 16 sentabrdagi O'RQ-407-sonli "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonunining 16-moddasi birinchi qismi 20-bandi (Ichki ishlar organlarining majburiyatlari), yangi tahrirda bayon etish:

«ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxsga nisbatan ilgari jazoni ijro etish muassasasida bo'lgan davrda cheklovlar belgilanmagan bo'lsa;

ozodlikda bo'lib, sud hujjatini ijro etishdan bo'yin tovlasa, O'zbekiston Respublikasi JPKning 542¹-moddasi asosida, tanlangan yashash joyiga o'z vaqtida yetib kelmagani munosabati bilan cheklovlar o'rnatish to'g'risida sudga iltimosnoma kiritish".

jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati bilan birgalikda qattiq va alohida rejimdagi jazoni ijro etish muassasasida jazoni o'tayotgan shaxsga nisbatan cheklovlarni o'rnatish to'g'risida sudga taqdimnoma kiritish bo'yicha materiallarni tayyorlashda ishtirok etish;

sud qarori asosida ma'muriy nazoratni amalga oshirish".

III. Retsidiv jinoyatlarni oldini olish samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar:

1. Oliy sud Plenumining 2008 yil 15 maydagi 13-sonli «Bir necha jinoyatlar sodir etilgan taqdirda qilmishlarni kvalifikatsiya qilish masalalari to'g'risida»gi qarori 19-moddasini quyidagi tahrirdagi ikkinchi qism bilan to'ldirish maqsadga muvofiq:

«Sudlar shuni nazarda tutishlari kerakki, O'zbekiston Respublikasi JKning 34-moddasi 1-qismida mustahkamlangan retsidiv jinoyat tushunchasi retsidiv

jinoyatchilik kriminologik tushunchasidan farq qiladi, uning ostida jinoiy javobgarlik yoshiga yetgan shaxs tomonidan amalga oshirilayotgan har qanday takroriy jinoiy faoliyat tushuniladi. Retsidiv jinoyatchilik – O‘zbekiston Respublikasi hududida muayyan vaqt davomida, jinoiy qilmishi aybi shaklidan va sudlanganlik o‘tganligi yoki olib tashlanganidan qat’iy nazar, ilgari jinoiy-huquqiy choralar qo‘llanilgan shaxslar tomonidan sodir etilgan barcha jinoiy qilmishlar yig‘indisi».

2. Axborot ta’minoti negizida, hayot va sog‘liqqa qarshi zo‘rlik ishlatib og‘ir retsidiv sodir etgan shaxsning shaxsiyati to‘g‘risidagi barcha mavjud ma’lumotlar yotishi kerak. Buning uchun uni o‘rganish bo‘yicha ishlar ozodlikdan mahrum qilish joylaridan ozod etilganidan so‘ng to‘xtab qolmasligi kerak. To‘plangan ma’lumotlar (masalan: jinoyatchining shaxsiy ishi shaklida) uning turar joyidagi tegishli organlarga o‘tkazilishi, shu bilan birga sobiq mahkumning ozodlikdagi xulq-atvrori kuzatib borilishi va tegishli ravishda qayd etilishi kerak. Ishga bunday yondashuv jinoyatchilar, shu jumladan retsidivistlar yagona ma’lumotlar bazasini yaratishga imkon beradi.

3. Hayot va sog‘liqqa qarshi zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan og‘ir jinoyatlarni oldini olish bo‘yicha faoliyat alohida xususiyatga ega bo‘lgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga olishi kerak, jumladan: tezkor-qidiruv tadbirlari, tezkor-qidiruv faoliyat va tezkor-qidiruv profilaktika jinoyat sodir etishga ko‘maklashayotgan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga, jinoiy guruhlarni bo‘lib tashlashga, voyaga yetmaganlarning jinoiy faoliyatga jalb etilishiga yo‘l qo‘ymaslikka yordam berishi lozim.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УНИВЕРСИТЕТЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ
БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**УНИВЕРСИТЕТ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

КУРБАНОВ ШЕРЗОД МУРАТКОБИЛОВИЧ

**ПРОТИВОДЕЙСТВИЕ РЕЦИДИВУ ТЯЖКИХ ПРЕСТУПЛЕНИЙ,
СВЯЗАННЫХ С ЖИЗНЬЮ И ЗДОРОВЬЕМ**

12.00.08 – Уголовное право. Криминология. Уголовно-исполнительное право

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по юридическим наукам

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2023.2.PhD/Yu806.

Диссертация выполнена в Университете общественной безопасности Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский) размещен на веб-странице Информационно-образовательного портала «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Тохиров Фарход,**
доктор юридических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Уразалиев Мурод Қораевич**
доктор юридических наук, профессор

Каракетова Дилноза Юлдашевна
доктора философии (PhD) по юридическим наукам

Ведущая организация: **Институт повышения квалификации МВД Республики Узбекистан**

Защита диссертации состоится «___»_____ 2023 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 при Университете общественной безопасности Республики Узбекистан. Адрес: 100109, Ташкентская обл., Зангиотинский район, поселок Чорсу. Тел.: 99871 230-32-71; факс:99871 230-32-50; mg_jxu@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Университета общественной безопасности Республики Узбекистан (зарегистрирован за № __. Адрес: 100109, Ташкентская обл., Зангиотинский район, поселок Чорсу. Тел.: 99871 230-32-71; факс: 998712303250.

Автореферат диссертации разослан «___»_____ 2023 года.
реестр протокола рассылки № _____ от «___» _____ 2023 года.

М.Х. Рустамбаев

Председатель ученого совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

Н.И.Хайриев

Научный секретарь ученого совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

М.Б.Усманов

Председатель научного семинара при ученом совете по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире ситуация с преступностью остается напряженной, согласно анализу за первое полугодие 2023 года, рост уровня преступности в 48 странах (из них наибольший в Венесуэле – 83,6, Папуа-Новой Гвинее – 79,9 и Афганистане – 78,6)¹ требует совершенствования системы борьбы с рецидивом тяжких преступлений, связанных с жизнью и здоровьем. Также в таких странах, как Китай, Индия, США и Индонезия, серьезно возрастает уровень рецидива, например, за последние пять лет уровень рецидива в США составляет 70%, из них 62% - преступления, связанные с применением насилия². Эта ситуация ставит перед мировым сообществом необходимость разработки эффективной системы предупреждения рецидивной преступности и ее ранней профилактики.

В мире ведутся исследования в сферах изучения рецидивной преступности и ее причин и условий, причин связанных с ней социально-негативных явлений, личности преступника, совершенствования системы противодействия рецидивной преступности и ее предупреждения, раскрытия социолого-психологического портрета преступных группировок. Немаловажное значение приобретает также изучение концептуального аппарата рецидивной преступности, определение основ повышенной уголовной ответственности за нее, анализ уголовно-правовых аспектов тяжких насильственных рецидивных преступлений против жизни и здоровья, изучение их криминологической характеристики и основных причин и условий, установление мер уголовно-правового обеспечения предупреждения рецидивных преступлений.

В нашей стране особое внимание придается дальнейшему совершенствованию национального законодательства, связанного с ранним предупреждением преступности и внедрением новых методов работы по борьбе с правонарушениями, предотвращению рецидивов преступлений против жизни и здоровья. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы в качестве приоритетного направления предусмотрен вывод системы профилактики преступности на качественно новый уровень, дальнейшее усиление оперативно-розыскной деятельности в борьбе с преступностью, последовательное продолжение политики совершенствования уголовного, уголовно-процессуального и Уголовно-исполнительного законодательства, коренное реформирование системы учета сообщений о преступлениях в правоохранительных органах, а также использование современных методов предупреждения случаев сокрытия преступлений диктует необходимость научного исследования данной области.

Данное диссертационное исследование в определенной степени послужит реализации задач, определенных в Уголовном кодексе Республики Узбекистан (1994), Уголовно-процессуальном кодексе (1994), Уголовно-исполнительном кодексе (1997), в Законах Республики Узбекистан «О

¹ https://www.numbeo.com/crime/rankings_by_country.jsp. Crime Index by Country 2023 (мурожаат санаси: 14.06.2023).

² <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/recidivism-rates-by-country> (по состоянию на 03.01.2023).

